



jild. 3 No 2 (2026)

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



journals@timeedu.uz



+998 95 651 90 00

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI



**“MUHANDISLIKDA SUN'IY INTELLEKT VA
RAQAMLI INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR”
MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**



FARG'ONA-2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI

"MUHANDISLIKDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR:

ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR" MAVZUSIDAGI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

21 MAY 2026 YIL



МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ

УЗБЕКИСТАН

ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ УПРАВЛЕНИЯ И ЭКОНОМИКИ

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ

«ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В

ИНЖЕНЕРИИ: СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

21 МАЯ 2026 ГОДА



MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF

UZBEKISTAN

TASHKENT INSTITUTE OF MANAGEMENT AND ECONOMICS

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE THEME "ARTIFICIAL

INTELLIGENCE AND DIGITAL INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN ENGINEERING: MODERN

SOLUTIONS AND PROSPECTS" 21 MAY 2026

“Muhandislikda sun’iy intellekt va raqamli innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami. 2026-yil 21-may.

Ushbu to‘plamda — “Muhandislikda sun’iy intellekt va raqamli innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yechimlar va istiqbollar” Xalqaro ilmiy –amaliy anjuman ishtirokchilarining tezislari keltirilgan. Anjuman kun tartibiga kiritilgan masalalar dolzarb bo‘lib, u yalpi ma’ruzalar va amaliy zamonaviy muhandislik ta’limida raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt, muhandislik yechimlari va sanoat 4.0, robototexnika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish, ta’limda axborot va innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi, biznes jarayonlar va raqamli iqtisodiyotga axborot texnologiyalarining o‘rni kabi sho‘balardan tashkil topgan. To‘plam sohasi mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

Maqolalarda keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldir.

©Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tezislar to‘plami



☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ TMII_ilmiy_bolim

Tahririyat jamoasi

BOSH MUHARRIR:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li

TAHRIR HAY'ATI

1. Sharipov Qo'ngratbay Avezimbetovich — O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri, tfd, professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori, ifn, dotsent.
3. Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich — O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademiyasi, ifd, professor.
4. Xotamov Ibodullo Sadulloyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasini professori, ifn.
5. Sultonov Mansur Qilichovich — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi ekspertlar guruhi rahbari, tffd, dotsent.
6. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich — "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori.
7. Popkova Yelenadyevna — Rossiya Gen "Ilmiy aloqalar instituti" avtonom notijorat tashkiloti prezidenti, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
8. Dr Go Khang Ven — Malayziyaning INTI xalqaro universiteti prorektori.
9. Wang Cheng — XXR "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" instituti iffd, dotsent.
10. Xakimova Nilufar Karimkulovna — O'zMU huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti PhD, ilmiy xodimi.
11. Yo'ldoshev Nuriddin Qurbonovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Biznes boshqaruvi va moliya kafedrasini ifd, professor.
12. Chariyev Qurbon Amirovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasini professori, ifd.
13. Abduraimova Nigora Radjabovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasini dotsenti, iffd.
14. Anarqulova Gulnaz Mirzaxmatovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini professori, ifn.
15. Yakubov Sadirjan Bakiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini professori, ifn.
16. Kadirova Istora Bobirovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, iffd, dotsent.
17. Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, iffd, dotsent.
18. Mamatov Narzullo Solidjonovich — "TIQXMMI" MTU kafedra mudiri, texnika fanlari doktori, professor.
19. Turaqulov Otabek Xolmirzayevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri, tffd, dotsent.
20. Toirov Shuxrat Abduganiyevich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini professori vb, tffd.
21. Yusupov Rustam Abdimuratovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti, tffd.
22. Nazarov Xolmo'min Abduxobovich — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti, fmf.
23. Asrayev Muhammadmullo Abdulla o'g'li — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasini dotsenti, tffd.
24. Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna — Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini dotsenti, fffd.

BOSHQARUV SIFATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI

Shoyev D.

*Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, "Biznes boshqaruvi va moliya"
kafedrasi katta o'qituvchisi, (PhD).*

Abdullayeva G.

Farg'ona davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda ichki tashkiliy omillar (liderlik, tashkiliy madaniyat, kadrlar salohiyati) va tashqi institutsional omillar (milliy boshqaruv sifati, ijtimoiy ishonch, investitsiya samaradorligi) o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Maqolaning ilmiy yangiligi omillarni kompleks baholash modelini ishlab chiqish va ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: Boshqaruv sifati, korporativ boshqaruv, liderlik, tashkiliy madaniyat, investitsiya samaradorligi, ijtimoiy ishonch, institutsional omillar, boshqaruv samaradorligi, kompetentlik, strategik rejalashtirish.

Аннотация: В данной научной статье систематически анализируются основные факторы, влияющие на качество управления. Исследование рассматривает взаимосвязь между внутренними организационными факторами (лидерство, организационная культура, кадровый потенциал) и внешними институциональными факторами (качество национального управления, социальное доверие, эффективность инвестиций). Научная новизна статьи заключается в разработке комплексной модели оценки факторов и определении механизмов их взаимодействия.

Ключевые слова: качество управления, корпоративное управление, лидерство, организационная культура, эффективность инвестиций, социальное доверие, институциональные факторы, эффективность управления, компетентность, стратегическое планирование.

Abstract. This scientific article systematically analyzes the key factors influencing management quality. The study examines the relationship between internal organizational factors (leadership, organizational culture, personnel potential) and external institutional factors (national governance quality, social trust, investment efficiency). The scientific novelty of the article lies in developing a comprehensive model for factor assessment and identifying their interaction mechanisms.

Keywords: Management quality, corporate governance, leadership, organizational culture, investment efficiency, social trust, institutional factors, management effectiveness, competence, strategic planning.

Kirish. Iqtisodiy munosabatlar sharoitida boshqaruv sifati korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi hamda barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini belgilab beruvchi asosiy omillardan biriga aylangan. Global iqtisodiy muhitning murakkablashuvi, raqobatbardoshlikning kuchayib borishi va texnologik o'zgarishlarning jadallashuvi sharoitida samarali boshqaruv tizimlarini yaratish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham davlat boshqaruvi va korporativ boshqaruv tizimlarida boshqaruv sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli nazariy va amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy asosda o'rganish, ularni tizimlashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqish hamda tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish, ularning tasnifini ishlab chiqish va boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalari hisoblanadi. Bekgilab olingan vazifalar quyidagilardan iborat, ya'ni - boshqaruv sifati tushunchasining nazariy-metodologik asoslarini ochib berish; boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish va tasniflash; ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlash; xalqaro tajriba va empirik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish hamda boshqaruv sifatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning obyekti sifatida turli tashkiliy tuzilmalar, korxonalar va ta'lim muassasalarining boshqaruv jarayoni hisoblanadi. Tadqiqot predmeti sifatida boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar majmui, ularning o'zaro bog'liqlik mexanizmlari va ta'sir darajalari hisobga olindi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Boshqaruv sifati masalalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, EFQM (European Foundation for Quality Management) mukammallik modeli boshqaruv sifatini baholashning eng nufuzli vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu model liderlik, strategiya, xodimlar, resurslar va jarayonlar kabi mezonlarni o'z ichiga oladi. Hindiston IT xizmatlari mutaxassislari tomonidan 2016 yilda o'tkazilgan tadqiqot kichik va o'rta biznes korxonalarida boshqaruv sifati jarayonlarini o'rganishga asoslangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, uchta asosiy omil - tashkiliy boshqaruv, ishlab chiqarish quvvatlarni samarali boshqarish, hamda xavfsizlik menejmenti - boshqaruv sifati ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etuvchi omillar hisoblangan.

Rossiyalik tadqiqotchi V.S.Lazarev o'z tadqiqotlarida boshqaruv samaradorligi erishilgan va imkoniyati mavjud bo'lgan unumdorlik o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Unumdorlik ma'lum bir vaqt davomidagi natijalar va ular bilan bog'liq xarajatlar o'rtasidagi ijobiy munosabatni ko'rsatadi deb ta'kidlab o'tilgan.

Tailand Milliy sog'liqni saqlash instituti tomonidan o'tkazilgan (2019) tadqiqot natijalariga ko'ra esa liderlik, korxonaga bo'lgan tashkiliy sadoqat va samarali ish muhitining tashkil etilganligi menejment sifatiga eng kuchli ta'sir etuvchi omillar ekanligini aniqlagan.

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) N.R.Safarova o'z dissertatsiya ishida umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillari o'rganilgan, natijada boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida strategik rejalashtirish, boshqaruv uslublari, jamoaning integrativ faoliyati va innovatsion faoliyat kabi omillar ajratib ko'rsatilgan.

Mazkur o'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillar asosan alohida soha yoki tashkilot turlari kontekstida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarning o'ziga xosligi quyidagilardan iborat: Birinchidan, integrativ yondashuv – bu ichki tashkiliy va tashqi institutsional omillar ta'sirini bir tizimda o'rganish; ikkinchidan, tarmoqlararo tahlil - turli tarmoq va soha sohalar (ta'lim, ishlab chiqarish, xizmatlar) tajribasini qiyosiy o'rganish; uchinchidan esa boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash modeli – ularning o'zaro ta'sirini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillarni tizimli tahlil qilish maqsadida kompleks (integratsiyalashgan) yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu yondashuvning ahamiyati boshqaruv sifatini oshirish va samaradorlikka erishish nuqtai nazaridan nazariy hamda amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, shuningdek, boshqaruv jarayonlarining ko'p omilliligi va dinamikligini hisobga olishga imkon beradi. Boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillar va ularning tahlili umumiy ilmiy va maxsus usullar asosida olib boriladi.

1-Jadval. Omillar tahlilida qo'llaniladigan usullar.

Usul nomi	Qo'llanish maqsadi	Natija
Tizimli tahlil	Omillarni tizimlashtirish va tasniflash	Omillarning 4 asosiy guruhi aniqlandi
Qiyosiy tahlil	Xalqaro va mahalliy tajribalarni solishtirish	O'xshash va farqli jihatlar aniqlandi
Statistik tahlil	Empirik ma'lumotlarni qayta	Omillar ta'sir darajasi

	ishlash	hisoblandi
Korelyatsion tahlil	Omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash	12 ta muhim korrelyatsiya aniqlandi

Boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillarni baholash uchun quyidagi formula asosida integral ko'rsatkich ishlab chiqildi:

$$MQ = 0.35 \times I + 0.30 \times T + 0.20 \times M + 0.15 \times E$$

bu yerda:

MQ – boshqaruv sifatining integral ko'rsatkichi;

I – ichki omillar indeksi (liderlik, madaniyat, kadrlar);


T – texnologik omillar indeksi (axborot tizimlari, raqamlashtirish);

M – metodologik omillar indeksi (standartlar, jarayonlar);

E – tashqi muhit omillari indeksi (institutSIONal, iqtisodiy).


Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijasida boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillar to'rt asosiy guruhga ajratildi:




1-rasm. Ichki tashkiliy omillar

Ichki tashkiliy omillar tahlilida - liderlik va rahbarlik ko'rsatkichining yuqori darajaga ega bo'lishi, bu kirxona ichida aniq maqsadlar, samarali qaror qabul qilish, xodimlarning motivatsiyasi va ijro intizomi samarali yo'lga qo'yilganligini anglatadi. Ushbu sharoitda boshqaruv sifati muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilganligi sifatida baholanadi, ya'ni kuchli rahbarlik salohiyatidan samarali foydalanishga va jamoaviy natijalarni o'sishiga xizmat qiladi.




2-rasm. Tashqi institutsional omillar

Tashqi institutsional omillarni tahlil natijalarida milliy boshqaruv sifatining yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishi, bu qonunchilik, nazorat tizimlari, davlat xizmatlari va huquqiy munosabatlarning takomillashganidan dalolat beradi. Korxonalarning boshqaruv sifati ham yuqori darajada yo'lga qo'yilganligini bildiradi, chunki ular tashqi ta'sir omillar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi hamda risk va korrupsiya darajasi nisbatan past ko'rsatkichga ega bo'ladi.



3-rasm. Texnologik omillar

Texnologik omillar tahlili natijalariga ko'ra raqamlashtirish darajasi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan holatda axborot va ularni qayta ishlash tezligi, boshqaruv qarorlarning asoslanganligi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va masofaviy boshqaruv imkoniyatlarini oshishiga olib keladi. Bu esa boshqaruv sifatini sezilarli darajada o'sishiga xatoliklarning kamayishiga, jarayonlarning shaffofligini ta'minlashga, vaqt va resurslarning samarali sarflanishiga xizmat qiladi.



4-rasm. Metodologik omillar


Metodologik omillar tahlili natijalari bo'yicha strategik rejalashtirish yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishi, korxonaning kelajakdagi o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish, maqsadlarni oldindan belgilab olish, muqobil variantlarni samarali ishlab chiqish va resurslarni ustuvor yo'nalishlarga to'g'ri taqsimlash imkoniyatiga ega bo'lishini oshiradi. Bu esa korxonada boshqaruv sifatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

2-jadval. Metodologik omillar tahlili.

Omil nomi	Tavsifi	Ta'sir darajasi (%)
Strategik rejalashtirish	Korxonaning strategik maqsadini belgilab olish va unga erishish mexanizmini ishlab chiqish	35%
Jarayonli yondashuv	Biznes-jarayonlarni standartlar asosida ishlab chiqish va jarayonni optimallashtirish	30%
Baholash tizimi	KPI va boshqa baholash ko'rsatkichlar tizimi asosida	20%

Boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillarni empirik tahlil natijalaridan, boshqaruv sifatini oshirishda birinchi navbatda liderlik va texnologik omillarga e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Kadrlar salohiyatini oshirish va institutsional omillar hamda madaniy omillarning kuchaytirilishi boshqaruvning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Boshqaruv sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni korelyatsion tahlil qilish asosida shu xulosaga kelish mumkin:



5-rasm: Boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillar integral ko'rsatkichlari tahlili

Boshqaruvda liderlik va kadrlar salohiyati o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud ($r=0.72$);

Boshqaruvning tashkiliy madaniyat va liderlik o'rtasida ham o'zaro kuchli bog'liqlik mavjud ($r=0.68$);

Boshqaruvning texnologik hamda institutsional omillar bog'liqligi ham sezilarli darajada ($r=0.52$).

3-jadval: Omillar o'rtasidagi korelyatsiya matritsasi jadvali.

Omillar	Liderlik	Madaniyat	Kadrlar	Texnologiya	Institutsional
Liderlik	1.00	0.68	0.72	0.54	0.48
Tashkiliy madaniyat	0.68	1.00	0.65	0.42	0.38
Kadrlar salohiyati	0.72	0.65	1.00	0.56	0.44
Texnologik omillar	0.54	0.42	0.56	1.00	0.52
Institutsional omillar	0.48	0.38	0.44	0.52	1.00

Manba: Muallif hisob-kitobi ($p<0.05$)

Ushbu jadval malumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, eng kuchli bog'lanishlarga ega bo'lgan omillar bu liderlik va kadrlar salohiyati (0.72); Eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan omillar bu yaxshi lider kadrlar salohiyatini shakllantiradi va rivojlantiradi (malaka oshirish, motivatsiya, tanlash tizimi). Bu ikki omil bir-birini mustahkamlaydi. Liderlik va tashkiliy madaniyat (0.68); O'rtacha kuchli bog'lanishlarga ega bo'lgan esa kadrlar va tashkiliy madaniyat (0.65); Xodimlarning malakasi hamda tashkiliy madaniyat o'zaro chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin. Shuningdek, liderlik va texnologik omillar (0.54); Eng past bog'lanishga ega bo'lgan institutsional hamda tashkiliy madaniyat (0.38); shuningdek, tashkiliy madaniyat va texnologik omillar bog'lanishi (0.42);

Xulosa va takliflar

Boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi omillarni to'rt asosiy guruhga ajratildi: ichki tashkiliy, tashqi institutsional, texnologik va metodologik omillar.

Eng kuchli ta'sir etuvchi omillar bu - liderlik (35%), kadrlar salohiyati (25%) va milliy boshqaruv sifati (40% tashqi omillar ichida).

Omillar o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, tizimli yondashuvni amalga oshirishni talab qiladi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv sifatini oshirishda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish va raqamli transformatsiyani amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega. Shu bilan birga, boshqaruv sifatiga ta'sir etuvchi onillarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish; Sun'iy intellekt va

raqamlashtirishning boshqaruv sifatiga ta'sirini baholash; Boshqaruv sifati va tashkilot moliyaviy samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikning miqdoriy modellarini ishlab chiqish; Mintaqaviy va madaniy omillarning boshqaruv sifatiga ta'sirini qiyosiy tahlilini amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Basu, R., & Bhola, P. Impact of quality management practices on performance stimulating growth. International Journal of Quality & Reliability Management. (2016).
2. Drivers of corporate governance: The impact of social trust and investment efficiency. Journal of Corporate Finance. (2025).
3. Muxitdinov, X.A., Sobirov, A.A. Menejment. Toshkent. (2012).
4. Gomez-G, J., Martinez-Costa, M., & Martinez-Lorente, A.R. Weighting the dimensions in models of excellence. International Journal of Quality & Reliability Management. (2016).
5. Azizov, U.S. Umumiy o'rta ta'lim maktab rahbarlarining innovatsion boshqaruv kompetentligini takomillashtirish mexanizmlari. Yosh olimlar, 3(11), 57-60. (2025).
6. Factors affecting quality management at the Thai national institute of health. Health Policy. (2019).
7. Kim, K., & Faust, K.M. Critical Review of Multidimensional Organizational

верева В.И. Организационно-педагогическая деятельность руководителя школы. – М.: «Новая школа». 1997-йil.

MUNDARIJA		
1-SHO'BA: ZAMONAVIY MUHANDISLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT		6
<i>Turakulov O Asrayev M Karimov E</i>	QISHLOQ VRACHLIK PUNKTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING RO'LI	6
<i>G'oiipova Kh</i>	VOICE ANALYSIS TECHNOLOGIES SPECIAL ALGORITHMS AND ARTIFICIAL INTELLECT MODELS	11
<i>G'oiipova Kh</i>	SECURITY MECHANISMS BASED ON VOICE AND VIDEO SYNTHESIS	17
<i>Sh.A.Toirov, T.E.Xudoyqulov</i>	METHODS AND SOLUTIONS FOR GENERALIZING AMPLITUDE AMPLIFICATION IN QUANTUM ALGORITHMS	23
<i>Rizayev X</i>	MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA AUTOCAD DASTURIDAN BIM TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN REVIT DASTURIGA O'TISHNING DIDAKTIK AFZALLIKLARI	27
<i>Turakulova Sh</i>	KO'Z TUBI TASVIRLARIDA QON TOMIR TARMOQLARINING DIAMETRI, EGRI-BUGRILIGI VA TARMOQLANISH BURCHAKLARI ASOSIDA DIAGNOSTIK TAHLIL	34
<i>Turakulov O, Jumaboyev D</i>	IJTIMOIIY TARMOQ YOZISHMALARIDAGI HISSIYOTLARNI TAHLILLASH MODELII	45
<i>X.T. Dusanov</i>	SUN'IY INTELLEKT ALGORITMLARI ASOSIDA TASVIRLAR SIFATINI OSHIRISH	49
<i>Yusupov R.A.</i>	YER OSTI SUVLARI GIDROSFERASI HARAKATINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MODELLASHTIRISH	56
<i>Erhanova N</i>	BOLALARNING NUTQINI O'STIRISH ORQALI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	64
<i>S.A. Olimov</i>	TA'LIM TIZIMIGA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH JIHATLARI	70
<i>Shadmanov S</i>	SUN'IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	77
2-SHO'BA: MUHANDISLIK YECHIMLARI VA SANOAT 4.0		82
<i>Норматов Ш, Туражонов К,</i>	МЕТОД ОЦЕНКИ УСТОЙЧИВОСТИ ОТКОСОВ И УСТУПОВ КАРЬЕРА	82

Логинов П, Акбаров Н		
Егорова В.В.	ЖИВУЧЕСТЬ И ТЕХНИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ КАРКАСА ЗДАНИЯ В РЕЗУЛЬТАТЕ ОСОБОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ	89
Ochilova I	O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA GENDER TENGLIK INDIKATORLARINI RAQAMLI MONITORING QILISH MEXANIZMLARI	104
Axmedov X, Sharipov K	KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA ZAMONAVIY TAHLIL METODLARINING AHAMIYATI	109
Khidirova D	TOWARDS TRUSTWORTHY WILDFIRE DETECTION: INTEGRATING EXPLAINABILITY AND UNCERTAINTY IN DEEP LEARNING MODELS	113
Axmedov X, Sharipov K	RAQOBAT STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH ASOSIDA KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	120
Narbayev Sh, Abduqayumov A	DAVLAT KORXONALARIDA ESG STANDARTLARI ASOSIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	126
Omonturdiyev O	SIFATLI NOTO'QIMA MATO OLISH UCHUN JUN TOLASINI CHO'TKALI BARABAN ORQALI SAMARALI TOZALASH VA UZATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI	132
Rashidov J.X., Kaipov A. K	IQTISODIY MODERNIZATSIYA JARAYONIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	143
Rashidov J.X., Kaipov A. K	IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH JARAYONIDA KORXONALARDAGI MOLIVAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	147
Kadirjanova M	KORXONALARDA INNOVATSION RIVOJLANISHNI BOSHQARISH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	158
Kadirjanova M	KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	166

<i>R.M. Tursunova, M.E. Tursunov, G. Abduraxmanov, A.T. Dexqonov, Sh.M. Norbekov, D.R. Jumaboyev</i>	LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHASIDA SIZIB O'TISH BUSAG'ASIGA TEXNOLOGIK OMILLAR TA'SIRI	173
3-SHO'BA: ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARI		179
<i>Asrayev M, Tursunaliyeva O</i>	HTTP GET ORQALI SERVERGA ULANISH.	179
<i>M.E. Tursunov, Sh.M. Norbekov</i>	AVTOMOBILLAR UCHUN PELTIER EFFEKTI ASOSIDAGI MINI AQLLI SUV SOVITISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ ETISH	188
<i>Yakubov S, Xasanova Sh.</i>	ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARINING O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI INTELLEKT	194
4-SHO'BA: KIBERXAVFSIZLIK VA MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH		201
<i>Sh.A.Toirov, A.A.Seytnazarova, T.E.Xudoyqulov</i>	OPTIMIZING GLOBAL SEARCH PROBLEMS USING GROVER'S QUANTUM ALGORITHM	201
<i>Toshpo'latov Sh</i>	VEB-ILOVALARDA HTTP XAVFSIZLIK SARLAVHALARINI JORIY ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI	209
<i>Очилов Н, Набиев С</i>	АНАЛИЗ АРХИТЕКТУРНОГО СЛОЯ ИСТОЧНИКОВ ДАННЫХ DLP-СИСТЕМ ДЛЯ ГИБРИДНЫХ КОРПОРАТИВНЫХ СРЕД	215
<i>Toirov Sh, Asrayev M, Yo'ldoshaliyeva G</i>	KIBERHUJUM VA UNGA QARSHI KURASH	225
<i>Karabayev R.</i>	O'ZBEKISTONDA KIBERXAVFSIZLIK HOLATINI BAHOLASH VA KIBERXAVFLARNING STATISTIK TAHLILI	229

5-SHO'BA: TA'LIMDA AXBOROT VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI		237
<i>Suyunov Y, Nazarov U</i>	RAQAMLI TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA MOLIVAVIY NAZORATINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI	237
<i>Gulyamova Sh</i>	THE NEW SETUP IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING (ELT): THE INTEGRATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND STANDARD CLASSES	247
<i>Xashimov A, Mamatov A</i>	KADRLARNI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH UCHUN ELEKTRON BAHOLASH TIZIMLARI TAHLILI	252
<i>Mirzaev R.</i>	MATERIALLARNI ME'YORLASHTIRISH JARAYONIDA DATA ANALITIKA VA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI	264
<i>Xaydarov S</i>	TALABALARNI TARBIYALASHDA JISMONIY VA MA'NAVIY BARKAMOLLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARIDA AXBOROT VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI	269
<i>Anarkulova G, Mamajonova R.</i>	OLIY TA'LIMDA MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	278
<i>Sherova D.</i>	OLIY TA'LIMDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI	284
<i>Mukhamadiyev A, Sh.A.Toirov</i>	OPTIMIZING EDUCATIONAL PROCESSES WITH GENERATIVE AI: INNOVATIVE INSTRUCTIONAL DESIGN AND AUTOMATED ASSESSMENT TOOLS	290
<i>Xoshimova M.</i>	AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA KONFLIKTOLOGIK	301

	KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	
<i>Olamova M.</i>	PEDAGOGIK LOYIHALASHDA TALABALARDA AXBOROT-KONSTRUKTIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI	306
<i>Mamadaliyev N.</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA “MA’LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLAR” FANINING DASTURIY TA’MINOTINI PEDAGOGIK QO’LLASH METODIKASI	311
<i>G’aniyeva M. Yunusova I</i>	BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTI (ESG) – KORXONALARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY AUDITI SIFATIDA	315
<i>Juraboyeva Sh.</i>	TA’LIM VA BIZNES INTEGRATSIYASIDA RAQAMLI PLATFORMALARNING AHAMIYATI.	320
<i>Anvarov D.</i>	O’ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINI O’QITISHDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO’LLANILISHI: METODOLOGIK TAHLIL VA SAMARADORLIK	326
<i>Usmonova M.</i>	TELEFONGA TOBELIK – NOMOFOBIYA: ZAMONAVIY DAVRNING PSIXOLOGIK ILLATLARI.	331
<i>Jo’rayeva N</i>	KORXONALARDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH: CRAFERS SHIRINLIKLAR KORXONASI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT	340
<i>A. M. Романова, С.А. Олимов</i>	ЗНАЧЕНИЕ СЕТЕВОЙ ФОРМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ УВО ДЛЯ ИНЖЕНЕРНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ	349
<i>Suyunova N</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN HOLDA MATEMATIKA DARSLARIDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH	354
<i>Уснитдинов М</i>	РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА).	361

6-SHO'BA: BIZNES JARAYONLAR VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.		368
<i>Axmedov X.D, Kamalov Sh.F</i>	SANOAT KORXONALARIDA OPTIMAL XARAJATLAR STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH YO'LLARI	368
<i>Sodiqov M</i>	TOVARLAR VA XIZMATLARNI KENG TABAQALASHTIRISH YO'NALISHLARI	381
<i>R.B.Mirzayev</i>	REKLAMA TIZIMI VA SOTUV JARAYONINI MUVOFIQLASHTIRISH MASALALARI.	388
<i>Primov S, Akramov J</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MECHANIZMLARI	392
<i>Karabayev R.</i>	ИСККУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА	401
<i>Абдураимова Н, Зоҳидов А</i>	ПУТИ ДОСТИЖЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЗА СЧЁТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СЕТЕЙ В УЗБЕКИСТАНА	407
<i>М.Асраев, Ш.Ақбаров</i>	ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ФУНДАМЕНТ КОМПОЗИТНОГО БИЗНЕСА	417
<i>Abduraimova N, Zohidov A</i>	BARQAROR TARMOQLARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI BAHOLASHNING DOLZARB MODELLARI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	422
<i>Samatov A, Turdibekova S.</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLIGYALARNI JORIY QILISHNING SAMARADORLIGI.	430
<i>Samatov A, Turdibekova S.</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUV ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY MODELLARI TAHLIL QILISH	435
<i>Toxirov J.</i>	EKOLOGIK STANDARTLAR JORIY ETILISHIDA BUYRUQBOZLIK VA BOZOR MECHANIZMLARINING TA'SIRI	440

<i>Maxmudov J.</i>	O'ZBEKISTONNING "TASHQI QARZ ORQALI RIVOJLANISH STRATEGIYASI"	450
<i>Shoyev D, Abdullayeva G.</i>	BOSHQARUV SIFATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	459
<i>Daminova O', Pulatov Sh.</i>	QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARINING IQTISODIY MOHIYATI, TASNIFI VA FAOLIYAT XUSUSIYATLARI	467
<i>Daminova O', Pulatov Sh.</i>	QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORLARGA OLIB CHIQISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	471
<i>Narbayev Sh.K. Nabixonov S.</i>	BIZNES ETIKASIDAN KORPORATIV MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISH	480
<i>Muydinov N</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA IT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI	487
<i>Primov S, Shakirov X.</i>	DAVLAT TASHQI QARZI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	491
<i>Primov S, Shakirov X</i>	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNING STRATEGIK YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI.	498
<i>Bozorov J</i>	MEHNAT MIGRATSIYASINI KAMAYTIRISHDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY AHAMIYATI	505
<i>Mamajonov A</i>	STARTAPLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH MARKAZLARI FAOLIYATI: JAHON TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	511
<i>Samatov A, Kushbakov B</i>	KORXONANING IQTISODIY SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONLARI	516
<i>X.D.Axmedov, Kamalov.Sh</i>	KORXONADA TEXNIKAVIY VA MEHNAT RESURLARINI BOSHQARISH TAHLILI	521
<i>Karabayev R</i>	RAQAMLI IQTISODIYOT: NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	527
<i>Туракулов О, Асраев М,</i>	ЛУЧШИЕ РЕШЕНИЯ ДЛЯ ОПТИМИЗАЦИИ ЛОГИСТИКИ	532

<i>Мирзаева О.</i>		
<i>Алимов О</i>	ФОРСИРОВАННАЯ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИЯ БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ИИ-ПОДХОД ДЛЯ ЭКСПАНСИИ НА ВНЕШНИЕ РЫНКИ	543
<i>Nazarov X</i>	OCHIQ BANK (OPEN BANKING) FAOLIYATINING XALQARO TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA QO'LLANILISHI	551
<i>Narbayev Sh.K, Nabixonov S</i>	ISHBILARMONLIK ETIKASINI RIVOJLANTIRISHNI KORPORATIV MADANIYATGA TA'SIRI	560
<i>R.B.Mirzayev</i>	TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SOLIQ HUQUQI MADANIYATINING AHAMIYATI	572
<i>Narbayev Sh.K, Axmadaliyev V.A.</i>	QISHLOQ XO'JALIGI YERLARI MONITORINGINI YURITISHDA MASOFADAN ZONDLASH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	580
<i>Soliyev D</i>	SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH: AFZALLIKLARI VA IMKONIYATLARI	590
<i>Samatov A, Allanov U</i>	SIFAT MENEJMENT TIZIMIDA NOMUVOFIQLIKLARNI ANIQLASH USULLARI	597
<i>Narbayev Sh, Abdufattoxova H</i>	MENEJMENT FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKTNING INNOVATSION YECHIMLARI	600
<i>Narbayev Sh.K, Abduqayumov A</i>	KORXONALARDA ESG (Environmental, Social, Governance) KO'RSATKICHLARINI JORIY ETISHDA MENEJMENTNING ROLI	605
<i>Primov S, Akramov J</i>	DAVLAT MOLIVASINING BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI	611

Ingliz tili muharriri: Norbekov Shohzod Mamarasul o'g'li
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114